

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TERI-TANOSIL  
KASALLIKLARI VA KOSMETOLOGIYADA HAMSHIRALIK ISHI  
FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI  
SPETSIFIKATSIYASI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TERI-TANOSIL  
KASALLIKLARI VA KOSMETOLOGIYADA HAMSHIRALIK ISHI  
FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI  
SPETSIFIKATSIYASI**

**I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Teri-tanosil kasalliklari va kosmetologiyada hamshiralik ishi talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

**II. Me’yoriy asoslar**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori**

**III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

**Teri kasalliklari**

1. Teri tuzilishi va uning vazifalari. Terining morfologik elementlari va ularning turlari
2. Terining parazitlar kasalliklarida hamshiralik ishi
3. Terining allergik kasalliklarida hamshiralik ishi
4. Etiologiyasi yetarli aniqlanmagan kasalliklarda hamshiralik ishi
5. Terining yiringli kasalliklarida hamshiralik ishi
6. Terining virusli kasalliklarida hamshiralik ishi

**Tanosil kasalliklari**

7. Tanosil kasalliklarida va orttirilgan immun tanqisligi sindromida hamshiralik ishi

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
<b>1. Teri kasalliklari</b>			
1.1	Teri tuzilishi va uning vazifalari. Teri kasalliklarining klinik belgilari va kelib chiqishi sabablari. Terining morfologik elementlari va ularning turlari	Teri va tanosil kasalliklari fani tushunchalari va maqsadini bilish, vazifalarini amaliyotda qo'llay olish, klinik fanlar bilan bog'lanishini taqqoslay olish, terining tuzilishi va uning vazifalarini bilish, teri kasalliklarining kelib chiqish sabablarini bilish, terining morfologik elementlari va ularning turlarini ajrata olish kerak, umumiy va mahalliy davolash usullari haqida tushunchaga ega bo'lish, terining yuqumli kasalliklarini yuqish yo'llarini, davolash va profilaktikasini bilish lozim	5
1.2	Terining parazitlar kasalliklarida hamshiralik ishi	Qo'tir, pedikulyoz kasalliklarining sabablari, epidemiologiyasi, yuqish yo'llari, klinik belgilarini bilish va ularni qiyosiy tashxisini aniqlay olish, kasalliklarni davolash usullari va oldini olish chora-tadbirlarini qo'llay olish, bemorlarni klinik va laborator tekshiruvlardan o'tkazishni qo'llay olish	6
1.3	Terining allergik kasalliklarida hamshiralik ishi	Allergodermatitlar tushunchasiga ega bo'lish, ularni keltirib chiqaruvchi omillar va sabablarni bilish. Dermatit, toksikodermiya kasbga aloqador dermatozlar, neyrodermatozlar kabi allergodermatozlarni klinik belgilarini bilish va morfologik elementlarini ajrata olish, kasalliklarni mahalliy va umumiy davolash usullarini bilish va qo'llay olish, asoratlarini bilish va kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va bemorni parvarish qilishni bilish va qo'llay olish	6
1.4	Etiologiyasi yetarli aniqlanmagan kasalliklarda hamshiralik ishi	Etiologiyasi yetarli aniqlanmagan teri kasalliklarini kelib chiqish sabablari, turlari, klinik belgilari, mavsumiylik va asoratlarini bilish, qiyosiy tashxis o'tkazish, laborator tekshiruv usullari natijasini tahlil qilish kerak, kasalliklarni davolash va asoratlarni oldini olish lozim	6
1.5	Terining yiringli kasalliklarida hamshiralik ishi	Terining yiringli kasalliklarini keltirib chiqaruvchi omillar, kasalliklarni klinik belgilari, asosiy morfologik elementlari va davolash usullarini bilish, terining yiringli kasalliklarida qiyosiy tashxis o'tkazishni bilish va amalda qo'llay olish, kasalliklarni asoratlarini va ularni oldini olish chora-tadbirlarini bilish kerak	6
1.6	Terining virusli kasalliklarida hamshiralik ishi	Terining virusli kasalliklarini keltirib chiqaruvchi omillar va ularni qo'zg'atuvchi viruslar turlarini ajrata olish kerak, kasalliklarni yuqish yo'llari va tarqalishini bilish,	6

		virusli kasalliklar diagnostikasida zamonaviy laboratoriya usullarini bilish, kasalliklarni davolash usullari va profilaktikasini bilish va qo'llay olish lozim	
<b>2. Tanosil kasalliklari</b>			
2.1	Tanosil kasalliklarida va orttirilgan immun tanqisligi sindromida hamshiralik ishi	Zahmning kelib chiqish sabablari va qo'zg'atuvchilari haqida ma'lumotga ega bo'lish, zaxmning davrlari va undagi klinik belgilarini bilish, toshma turlarini ajratish, kasallikka moyil guruhlarini aniqlash, so'zak kasalligini kelib chiqish sabablari, qo'zg'atuvchisi, yuqish yo'llari, erkaklar, ayollar va qizlar so'zaginging klinik belgilarini bilish va asoratlarini umumiy, mahalliy va spetsifik yo'l bilan davolashni bilish va qo'llay olish lozim. Tanosil kasalliklarda klinik va laborator tekshirish usullarini bilish. OIV va OITS haqida tushunchaga ega bo'lish, infeksiyasini yuqish yo'llari va klinik belgilarini bilish, bemorlardan anamnez yig'ish va kasallik sababini aniqlay olish, bemor va uning oila a'zolari bilan muloqot o'rnatish, OIV-infeksiyasi tekshiruviga qon olish, kasallikka moyil guruhlarini aniqlash, bemorni ijtimoiy qo'llab quvvatlash va sanitar-targ'ibot ishlarini olib borishni qo'llay olish	5

#### V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	<b>Bilish</b>	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	<b>Qo'llash</b>	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	<b>Mulohaza qilish</b>	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

#### VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan

	yopiq test
--	------------

## **VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt**

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

## **VIII. Imtihon tartibi**

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## **IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. E.H.Eshboyev "Teri va tanosil kasalliklari" "Ilm Ziyo", 2017 yil
2. M.R.Tilavov, S.T.Tursunov, S.A. Mustafoyev «Teri va tanosil kasalliklari» "Bilim", 2004 yil
3. A.Sh. Vaisov "Teri va tanosil kasalliklari" "Yangi asr avlodi", 2009 yil

*\*Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.